

УДК:633.88.

**DORIVOR ARPABODIYON O'SIMLIGINI YETISHTIRISHDA TUPROQ
VA IQLIM SHAROITLARIGA MOSLASHUVCHANLIGI**

U.I.Ruzimetov

*O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti
ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rindbosari*

Sh.X.Abdulazizov

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti magistranti*

Annotatsiya: Maqolada dorivor Arpabodiyon o'simligni Andijon viloyati tuproq iqlim sharoiti uchun ma'qbul ekish muddatlariga qo'yiladigan talablar, ekilgan urug'larni agrotexnik tadbirlari va iqlim sharoitini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zları: O'tloqi bo'z tuproq, Arpabodiyon dorivor o'simligini ekish muddatlari.

Annotation. Determining optimal planting dates for fennel as a secondary crop after wheat for Andijan region meadow gray soil climatic conditions.

Key words: Planting a medicinal plant of meadow gray soil, dill, fennel.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-sон qarorida Respublika hududlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o'rnatisht hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish xususan respublika hududidagi yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar areallarini o'rganish va zaxiralarini aniqlash, mavjud bioresurslar genofondini saqlash, onalik plantatsiyalarini tashkil etish to'g'risidagi qarorini ijrosini ta'minlab Respublikamiz tuprog'i unimdonligini xisobga olgan holda takroriy ekin sifatida yetishtirilayotgan ozuqabop ekinlardan muayyan iqlim sharoitda yuqori hosil olish mumkin. Ana shu maqsadda asosiy ozuqabop ekinlar bilan bir qatorda takroriy yozgi ang'izga ekiladigan ozuqabop ekinlarni ekish muhim ahamiyatga egadir.

Andijon viloyati Namangan viloyatiga nisbatan qurg'oqchilik, iqlimi keskin kontinental hisoblanadi. Mintaqamiz iqlimining o'ziga xosligi qurg'oqchil, yorug'lik hamda issiqlik mo'l-ko'l va keskin beqarordir. Bu yerda iqlimni yillar bo'yicha va yillar ichida beqaror o'zgarishi sodir bo'ladi. Atrofi tog' tizimlari bilan o'ralgan

Andijon viloyatining o'ziga xos iqlim-sharoitini shakllanishida g'arbdan esadigan shamollar muhim o'rinni tutadi.

Andijon viloyati Andijon tumanida joylashgan tajriba xo'jaligining iqlimi viloyatning markaziy qismi iqlimiga mos keladi.

Dorivor Arpabodiyoning o'sishi, rivojlanashi, hosil to'plashi, hosilni pishib yetilishi hamda hosildorligi yilning iqlim sharoiti bilan bevosita bog'liq bo'lib, muayyan yildagi ekinlardan olinadigan hosil taqdirini hal qiluvchi muhim tabiiy omil hisoblanadi. Shu boisdan tadqiqot o'tkazilgangan yillardagi havoning o'rtacha harorati, yong'in miqdori, Arpabodiyon va boshqa ekinlar uchun samarali harorat yig'indisi bo'yicha ma'lumotlar ko'p yillik ma'lumotlarga taqqoslanib tahlil qilindi.

Ma'lumotlar Andijon ob-havo Markazi ma'lumotlari asosida Oltinko'l tumani e'tiborga olingan holda hisob-kitob qilindi (2.2.1-javdal).

2023 yilning ob-havo sharoitiga ko'ra, qish oylarining ob-havosi ko'p yillikka va o'tgan yillarga nisbatan ham iliq keldi. Yanvar oyida havo harorati ko'p yillika nisbatan $-2,2^{\circ}\text{S}$ darajagacha pasayib, $-0,9^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Fevral oyida esa, ko'p yillika nisbatan $2,7^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, iliq havo harorati vujudga keldi.

Mart oyi havo harorati 2022 yilga nisbatan $0,3^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, kunlar isiy boshladidi. Aprel oyining o'rtacha sutkalik havo harorati 2022 yilga nisbatan $0,7^{\circ}\text{S}$ darajaga, ko'p yillikka nisbatan $1,8^{\circ}\text{S}$ darajaga pasayib, $15,9,9^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Bu oyning havo harorati ko'p yillika nisbatan sezilarli pasayganligi qayd etildi. Mayiyun oylarining havo harorati ham ko'p yillik haroratga nisbatan $1,4^{\circ}\text{S}$ darajaga pasayib, $19,2-23,8^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Bu oylardagi o'zgaruvchan havo haroratida ham qishloq xo'jaligi ekinlarini o'sish va rivojlanishi uchun qulay ob-havo sharoiti saqlanib turdi.

Iyul-avgust oylarida o'rtacha sutkalik havo harorati tegishli ravishda $28,7; 29,3^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etib, ko'p yillikka nisbatan yuqori havo hrорати saqlanib turdi.

Sentyabr oyida o'rtacha sutkalik harorat $20,1^{\circ}\text{S}$ darajaga tushib qolgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi ekinlarini pishib yetilishi uchun qulay iqlim-sharoiti vujudga keldi.

Bu yilgi sharoitda mart, aprel, may oyilaridagi yog'ingarchilik 11, 18, 33, 39, 48 mm ni tashkil qilib, yog'inlar miqdori 2022 yilga nisbatan 6-19 mm, ko'p yillika nisbatan 1,3 baravar ko'p yog'di. Keyingi oylarda esa yog'ingarchilik miqdorlarini ko'p yillikka nisbatan kamayishi kuzatildi. Aprel-may oylarida yog'ingarchilik 39-48 mm ni tashkil etgan ob-havo sharoitida, ayniqsa sabzavot ekinlari uchun qulay iqlim sharoiti saqlanib turdi. Umuman olganda tajriba yillaridagi iqlim sharoiti sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun ham qulay yil bo'ldi deb hisoblash mumkin (2.2.1-javdal).

Tajriba o'tkazilgan yillarningo'ziga xos xususiyati shundaki, chigiti 1 apreldan oktyabr oyigacha ko'p yillikka nisbatan 2021 yilda 249°S , 2020 yilda 291°S ,

2022 yilda 96°S darajagacha yuqori samarali harorat yig'ildi (2.1.1-jadval). Umuman olganda tajriba yillaridagi iqlim sharoiti g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qulay bo'ldi deb hisoblash mumkin.

2021 yili olingan ma'lumotlarga ko'ra, qish oylardagi ob-havosi ko'p yillikka nisbatan iliq keldi. Yanvar oyida havo harorati ko'p yillika nisbatan $-1,1^{\circ}\text{S}$ darajagacha pasayib- $2,0^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Fevral oyida esa, ko'p yillika nisbatan $3,9^{\circ}\text{S}$ ga ko'tarilib, iliq havo harorati vujudga keldi.

Mart oyi havo harorati 2020 yilga nisbatan $1,1^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, kunlar isiy boshladi. Aprel oyining o'rtacha sutkalik havo harorati 2020 yilga nisbatan $1,9^{\circ}\text{S}$ darajaga pasayib, $18,2^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Ko'p yillika nisbatan $0,5^{\circ}\text{S}$ darajaga pasayganligi qayd etildi. May oyi havosi ko'p yillika nisbatan $3,5^{\circ}\text{S}$ darajaga pasaygan bo'lsada, qishloq xo'jaligi ekinlarini o'sish va rivojlanishi uchun qulay ob-havo sharoiti saqlanib turdi.

Iyun-avgust oylarida o'rtacha sutkalik havo harorati tegishli ravishda 22,8; 28,5; $28,0^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etib, ko'p yillikka nisbatan yuqori havo hrорати saqlanib turdi.

Sentyabr oyida o'rtacha kunlik harorat $19,6^{\circ}\text{S}$ darajaga tushib qolgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi ekinlarini pishib yetilishi uchun qulay iqlim-sharoiti vujudga keldi.

Bu yilgi sharoitda mart-iyun oyilarida yog'ingarchilik ko'proq bo'lib, (2-47 mm), yog'inlar miqdori 2022 yilga nisbatan 1,0-1,5 mm ko'p yog'di. Keyingi oylarda ko'p yillik me'yordidan kam bo'ldi. Aprel-may oylarida yog'ingarchilik 48-68 mm ni tashkil etgan ob-havo sharoitida ayniqsa sabzavot ekinlari uchun qulay iqlim sharoiti saqlanib turdi.

Andijon ob -havo Markazi ma'lumotlari asosida Andijon viloyatining iqlim sharoiti

2.2.1-jadval

Ko'rskatkichlar	Yillar	O y l a r								
		yanvar	fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr
Havoning o'rtacha harorati, $^{\circ}\text{S}$	Ko'p yillik	-3,1	1,1	7,4	16,7	20,6	25,2	26,2	26,9	18,3
	2023	-2	4,0	6,1	16,2	17,1	22,8	28,5	28,0	19,6
	2022	-1,2	3,6	6,8	16,6	20,5	24,2	29,1	30,0	21,0
	2023	-09	3,8	7,1	15,9	19,2	23,8	28,7	29,3	20,1
Yog'in, mm	Ko'p yillik	27	33	47	26	24	22	8	6	4
	2023	10	25	41	48	68	15	3	0	0
	2023	8	17	52	45	56	12	2	0	0
	2023	11	18	33	39	48	16	10	7	12

Umuman olganda tajriba yillaridagi iqlim sharoiti sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun ham qulay yil bo'ldi deb hisoblash mumkin.

2022 yilning qish oylardagi ob-havosi ko'p yillikka nisbatan iliq keldi. Yanvar oyida havo harorati ko'p yillika nisbatan $-1,9^{\circ}\text{S}$ darajagacha pasayib, $-1,2^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Fevral oyida esa, ko'p yillika nisbatan $2,5^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, iliq havo harorati vujudga keldi.

Mart oyi havo harorati 2022 yilga nisbatan $0,7^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, kunlar isiy boshladi. Aprel oyining o'rtacha sutkalik havo harorati 2020 yilga nisbatan $0,4^{\circ}\text{S}$ darajaga ko'tarilib, $16,0^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Bu oyning havo harorati ko'p yillika nisbatan deyarli tenglashganligi qayd etildi. May oyining havo harorati ham ko'p yillik haroratga yaqin bo'lib, $20,5^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etdi. Bu oylardagi o'zgaruvchan havo haroratida ham qishloq xo'jaligi ekinlarini o'sish va rivojlanishi uchun qulay ob-havo sharoiti saqlanib turdi.

Iyun-avgust oylarida o'rtacha sutkalik havo harorati tegishli ravishda 24,2; 29,1; $30,0^{\circ}\text{S}$ darajani tashkil etib turibdi, olingen ko'p yillik ma'lumotlar 6 oylik hisobotning iyun oyiga to'g'ri kelganli va ma'lumotlarni to'la taxlil qilish uchun yil yakunlanmaganligi bois ob-xavoning ko'p yillik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bu yilgi sharoitda mart, aprel, may oyilaridagi yog'ingarchilik 52, 45, 56 mm ni tashkil qilib, yog'inlar miqdori 2021 yilga nisbatan 11-12 mm, ko'p yillika nisbatan 1,3 baravar ko'p yog'di. Keyingi oylarda esa yog'ingarchilik miqdorlarini ko'p yillikka nisbatan kamayishi kuzatildi. Aprel-may oylarida yog'ingarchilik 45-56 mm ni tashkil etgan ob-havo sharoitida ayniqsa Arpabodiyon va boshqa ekinlar uchun qulay iqlim sharoiti saqlanib turdi.

Umuman olganda tajriba yillaridagi iqlim sharoiti Arpabodiyon va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari uchun ham qulay yil bo'lib kelyapti deb hisoblash mumkin

XULOSA VA TAKLIFLAR

Andijon viloyati Oltinko'l tumanidagi dala tajriba maydonlariga ekilgan 3 (uch) xil muddatdagi dorivor Arpabodiyon o'simligining urug'larini xavo xarorati 18-20 gradus xamda yog'ingarchilkdan oldin ekish va ularning aprel oyining ikkinchi dekadasida ekish va ularning yer maydonlarini xech qanday mineral o'g'itlarsiz ekishga xamda ularning unuvchanlik darajasi xar bir qo'yilgan variantlarni inobatga xolda 2-4 variantlar eng maqbul ekish me'yorlarini aniqlab olindi.

May oyining so'nggi o'n kunligada esa sug'orilmaydigan lalmi yerdalarda ekish ishlari xam samarali bo'lib 3-4 variantlar eng sifatli unuvchanlik darajasi va xavo iqlim sharoiti mos kelishi dorivor arpabodiyon o'simligining urug'lari ekish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qarori.
2. "Dorivor o'simliklar yetishtirish" Toshkent 2021 yil
3. M.I.Ikromov, X.N.Normurodov, A.S.Yuldashev "Botanika O'simliklar Morfologiyasi va Annatomiyasi " Toshkent 2013 y.
4. B.S.Musaev "Agrokimyo" Toshkent Sharq nashiryoti 2001 yil